

FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABATLARDA TENGLIK, ADOLAT VA QONUN USTUVORLIGI TAMOYILLARINING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI

Turg‘unova Kamola Zohirjon qizi

O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti

*Tarix fakulteti Milliy g‘oya va ma‘naviyat asoslari, huquq ta‘limi yo‘nalishi
405-guruh talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada fuqarolik-huquqiy munosabatlarda tenglik, adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarining nazariy-huquqiy mazmuni hamda ularning zamonaviy huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, fuqarolik-huquqiy munosabatlarda shaxsning huquq va erkinliklarini kafolatlash, mulkiy va nomulkiy munosabatlarni tartibga solishda ushbu tamoyillarning amaliy ahamiyati ochib berilgan. Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi normalari asosida tenglik, adolat va qonun ustuvorligi prinsiplarining huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Bundan tashqari, sud-huquq islohotlari jarayonida inson manfaatlari ustuvorligini ta‘minlash, fuqarolarning huquqiy himoyasini kuchaytirish hamda demokratik tamoyillarni rivojlantirishdagi o‘rni ilmiy jihatdan ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: fuqarolik-huquqiy munosabatlar, tenglik tamoyili, adolat prinsipi, qonun ustuvorligi, inson huquqlari, huquq va erkinliklar, sud-huquq islohotlari, huquqiy kafolat, fuqarolarning teng huquqliligi, huquqiy himoya, demokratik jamiyat, huquqiy madaniyat, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi.

Kirish

Bugungi kunda O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida inson huquq va erkinliklarini ta‘minlash, qonun ustuvorligini mustahkamlash hamda jamiyatda adolat prinsipini qaror toptirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solishda tenglik, adolat va qonun ustuvorligi tamoyillari alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur tamoyillar fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, shaxs erkinligini ta‘minlash hamda jamiyatda huquqiy barqarorlikni mustahkamlashning asosiy huquqiy mezonini hisoblanadi.



O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat sifatida e’tirof etilgan. Konstitutsiyaning mazmun-mohiyatida inson manfaatlarini ta’minlash, fuqarolarning qonun oldida tengligini kafolatlash hamda adolatli jamiyat qurish g‘oyasi ustuvor yo‘nalish sifatida mustahkamlab qo‘yilgan. Xususan, Konstitutsiyada barcha fuqarolar millati, irqi, jinsi, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi va boshqa holatlardan qat’i nazar qonun oldida teng ekanligi belgilangan bo‘lib, ushbu norma fuqarolik-huquqiy munosabatlarning muhim konstitutsiyaviy asosini tashkil etadi.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda tenglik tamoyili barcha subyektlarning bir xil huquqiy maqomga egaligini ifodalaydi. Ushbu tamoyil fuqarolarning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarini amalga oshirishda, shartnomaviy munosabatlarda hamda sud orqali huquqlarni himoya qilish jarayonida muhim o‘rin tutadi. Tenglik prinsipi fuqarolik huquqining asosiy tamoyillaridan biri sifatida jamiyatda ijtimoiy adolat va huquqiy muvozanatni ta’minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, adolat tamoyili fuqarolik-huquqiy munosabatlarning mazmunini belgilovchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Adolat prinsipi huquqni qo‘llash jarayonida fuqarolarning manfaatlarini himoya qilish, nizolarni xolis va qonuniy hal etish hamda buzilgan huquqlarni tiklashda namoyon bo‘ladi. Sud-huquq tizimida adolatning ta’minlanishi jamiyatning davlat va qonunlarga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Qonun ustuvorligi tamoyili esa huquqiy davlatning ajralmas belgisi bo‘lib, barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolarning Konstitutsiya hamda qonunlarga bo‘ysunishini anglatadi. Mazkur prinsip fuqarolik-huquqiy munosabatlarda qonuniylikni ta’minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va fuqarolarning huquqiy himoyasini kuchaytirishda muhim ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari ham qonun ustuvorligini ta’minlash, inson manfaatlarini himoya qilish hamda adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Shu sababli fuqarolik-huquqiy munosabatlarda tenglik, adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarining mazmun-mohiyatini ilmiy jihatdan tahlil qilish, ularning o‘zaro bog‘liqligi va amaliy ahamiyatini o‘rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlar ishtirokchilarning huquqiy tengligi, ijtimoiy adolat va qonun ustuvorligi prinsiplariga asoslanadi. Ushbu tamoyillar



fuqarolar hamda yuridik shaxslar o'rtasidagi mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi muhim huquqiy poydevor hisoblanadi.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlarning eng muhim tamoyillaridan biri tenglik prinsipi hisoblanadi. Mazkur tamoyil fuqarolik huquqi subyektlarining huquqiy jihatdan teng maqomga egaligini, ularning qonun oldida tengligini hamda bir-biriga nisbatan ma'muriy bo'ysunuv holatida bo'lmasligini anglatadi. Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda barcha ishtirokchilar o'z huquq va majburiyatlarini erkin amalga oshirish huquqiga ega bo'lib, bu demokratik huquqiy davlatning muhim belgilaridan biridir.

Tenglik tamoyiliga ko'ra, fuqarolik huquqi subyektlari - jismoniy va yuridik shaxslar, shuningdek davlat ham mulk shaklidan qat'i nazar, huquqiy munosabatlarda teng huquqlarga ega hisoblanadi. Mazkur munosabatlarda bir ishtirokchi boshqasiga nisbatan buyruq berish vakolatiga ega bo'lmaydi, munosabatlar esa ixtiyoriylik va o'zaro kelishuv asosida shakllanadi.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda tenglik tamoyili ayniqsa shartnomaviy munosabatlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Shartnoma tuzishda taraflarning erkinligi, ularning o'z huquq va majburiyatlarini mustaqil ravishda belgilashi fuqarolik huquqining muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Fuqarolar va yuridik shaxslar o'z manfaatlarini ko'zlab, qonunchilikka zid bo'lmagan har qanday shartnoma shartlarini belgilashda erkin hisoblanadi. Bu esa iqtisodiy erkinlikni ta'minlash, xususiy mulk daxlsizligini himoya qilish hamda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adolat tamoyili fuqarolik-huquqiy munosabatlarning asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Mazkur prinsip fuqarolik-huquqiy munosabat ishtirokchilarining o'z huquqlarini amalga oshirishda halol, oqilona va adolatli harakat qilishini nazarda tutadi. Shuningdek, huquqni qo'llash jarayonida tomonlarning manfaatlari o'rtasida muvozanat ta'minlanishi, huquqni suiiste'mol qilish holatlariga yo'l qo'yilmasligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Fuqarolik huquqining asosiy tamoyillari uning mazmunini va amaldagi qonunlarni shakllantiruvchi asosiy prinsiplar sifatida talqin etiladi. Ushbu tamoyillar fuqarolik huquqi tizimining barcha normalarini belgilab, shaxslarning huquqlarini amalga oshirishda muhim yo'nalish beradi. Har bir tamoyil huquqiy muhitda erkinlik, adolat va tenglikni ta'minlash, shuningdek jamiyatda tartib va barqarorlikni saqlashga xizmat qiladi.

Qonun ustuvorligi har qanday demokratik jamiyatning asosiy tayanchi hisoblanadi. Huquq ustuvorligi deganda davlat, jamiyat va har bir



fuqaroning faoliyati qonun bilan belgilangan doirada amalga oshirilishi tushuniladi. O‘zbekiston Respublikasida ham huquq ustuvorligini ta’minlash davlat siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasiga ko‘ra, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari va fuqarolar Konstitutsiya hamda qonunlarga rioya etishga majburdirlar. Mazkur norma huquq ustuvorligining konstitutsiyaviy asosini belgilab beradi. Fuqarolik-huquqiy munosabatlar ham aynan O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va boshqa qonun hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

Fuqarolik qonunchiligi ular tomonidan tartibga solinadigan munosabatlar ishtirokchilarining tengligini e’tirof etishga, mulkning daxlsizligiga, shartnoma erkinligiga, xususiy ishlarga biron-bir shaxsning o‘zboshimchalik bilan aralashishiga yo‘l qo‘yilmasligiga, fuqarolik huquqlarining to‘siqsiz amalga oshirilishiga, buzilgan huquqlarning tiklanishiga hamda ularning sud orqali himoya qilinishini ta’minlash zarurligiga asoslanadi.

Fuqarolik huquqlarini sud orqali himoya qilish fuqarolik huquqining muhim tamoyillaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda buzilgan fuqarolik huquqlarini ishonchli himoya qilishning mustahkam tizimi yaratilgan. Konstitutsiyada har bir shaxsning o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish huquqi kafolatlangan. Sud organlari fuqarolik nizolarini ko‘rib chiqishda ishlarni har tomonlama va xolisona tahlil qilib, qonuniy hamda adolatli qaror chiqaradi.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari inson manfaatlari ustuvorligini ta’minlash, fuqarolarning huquqiy himoyasini kuchaytirish hamda jamiyatda adolat prinsipini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Xususan, “Harakatlar strategiyasi”, “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” hamda “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar huquqiy demokratik davlatni rivojlantirish va qonun ustuvorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangi tahrir, 01.05.2023.
2. Fuqarolik huquqi: darslik. I qism / O. Oqyulov tahriri ostida. - T.: TDYU, 2017.



3. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi.29.08.1996.

4. Sh.M. Mirziyoyev Yangi O‘zbekiston strategiyasi. - Toshkent:
“O‘zbekiston”, 2021.

5. R.B.Hojiyev “Fuqarolik huquqi” O‘quv-uslubiy qo‘llanma Chirchiq-
2022.B 7-10

Elektron manbalar

1.<https://constitution.uz/oz/clause/index>

2.<https://api.unilibrary.uz/storage/PublisherResourceFile>

3.<https://lex.uz/mact/-111189>

